

Xo`jaqulov Davron Abdixakimovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrası

**BEMORLAR VA SOG`LOM ODAMLARNING SURUNKALI VIRUSLI
GEPATIT B VA C HAQIDAGI BILIM DARAJASINI BAHOLASH**

Annotatsiya: Surukali virusli gepatit B va C kasallilari butun dunyoda va shu jumladan O`zbekistonda ham aholining turli guruxlari orasida uchrab turadi hamda shu kasallik haqida ma`lumotga ega bo`lmaganligi sababli dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Kalit so`zlar: Surukali virusli gepatit B va C, bemor, emlash, epidemiologiya, davo, infeksiya.

Худжакулов Даврон Абдихакимович
Самаркандский государственный медицинский университет
Кафедра микробиологии, вирусологии и иммунологии
**ОЦЕНКА УРОВНЯ ЗНАНИЙ О ХРОНИЧЕСКИХ ВИРУСНЫХ
ГЕПАТИТАХ В И С У БОЛЬНЫХ И ЗДОРОВЫХ ЛЮДЕЙ**

Аннотация: Пациенты с вирусными гепатитами В и С встречаются во всем мире, в том числе и в Узбекистане, среди различных групп населения и являются одной из актуальных проблем из-за отсутствия информации об этом заболевании.

Ключевые слова: Вирусные гепатиты В и С, пациент, вакцинация, эпидемиология, лечение, инфекция.

Khudzhakulov Davron Abdikhakimovich
Samarkand State Medical University
Department of Microbiology, Virology and Immunology

ASSESSMENT OF THE LEVEL OF KNOWLEDGE ABOUT CHRONIC VIRAL HEPATITIS B AND C IN PATIENTS AND HEALTHY PEOPLE

Abstract: *Chronic viral hepatitis B and C patients are found all over the world, including in Uzbekistan, among various groups of the population, and are considered one of the urgent problems due to the lack of information about this disease.*

Keywords: *Chronic viral hepatitis B and C, patient, vaccination, epidemiology, treatment, infection.*

Dolzarbli: Viruslar qo'g'atadigan gepatitlar er yuzida juda keng tarqalgan. Ular bemorlarni uzoq muddatga ishga yaroqsiz qilib qo'yadi, ba'zan bemorlarning o'limiga yoki nogiron bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Virusli gepatitlar medisina fani va sog'liqni saqlash tashkilotlari oldidagi juda muhim muammo hisoblanadi.

Bu kasallikarni ba'zi jihatlari hali etarli o'rganilmagan, ularning davolash usullari va profilaktikasi talabga javob bermaydi. 1989 yilda M.Houghton guruxi tomonidan gepatit C virusining oqsiliga mos oqsil ajratib olindi. JSST ning bergan ma'lumoti bo'yicha bu virus qon quyish oqibatida gepatit bilan kasallangan bemorlarning 85-86 % da aniqlanadi.

Maqsad: Bemor va sog'lom odamlar orasida surunkali gepatit B va C ning turli jihatlari haqida bilim darajasini baholash.

Vazifalar: Surunkali gepatit B (SVB) va C bilan kasallangan bemorlar va sog'lom odamlar o'rtasida so'rov o'tkazish. Ushbu guruxlardagi o'xshash savollarga javoblarni solishtirish.

Tekshiruv materiallari va usullar:

Anonim so'rovda qatnashgan.

2022-2024 yillarda Samarqand viloyati, Payariq tumani aholisining 15 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan 44 kishiga va Payariq tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli yuqumli kasallilar bo'limida davolangan 15 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan surunkali gepatit B va C bilan og'rigan 22 nafar bemorga SGB va SGC kasalligining

epidemiologiyasi, kechishi va davolash usullari haqida 20 ta savol berildi va so'rovnomaga o'tkazildi.

Natijalar: Surunkali gepatit B va C bilan og'riqan bemorlarning epidemiologiya bo'yicha bilimlari sog'lom odamlardan farqli ravishda yuqori (100%), sog'lom odamlar orasida esa xabardorlik darajasi o'rtacha (85,2 %). Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, SGB va C bilan kasallangan bemorlar gepatit muammolariga (infeksiyadan keyin) ko'proq qiziqish bildirishdi va sog'lom odamlar bu kasallil haqida etarli ma'lumotga ega emasliklari ko'rindi.

SGB va C bilan kasallangan odamlar SGB (70,0%) va (81,3%) kechishi va oqibati haqida yuqori bilimga ega, Sog'lom odamlar esa SGB va C (18,1%) va C (24,8%) bo'yicha o'rtacha ma'lumotga ega. Bundan kelib chiqadiki, bemor odamlar sog'lom odamlardan farqli ravishda gepatitni o'z vaqtida davolamaslik oqibatlarini yaxshi bilishadi.

SGB va C gepatitlari bilan kasallangan bemorlarda B (39,0%) va C (52,1%) gepatitlarning yuqish yo'llari va omillari haqida bilim darajasi o'rtacha, sog'lom odamlarda esa B (24,3%) va C (27,4%) gepatitlari haqidagi bilim darajasi etarli emasligi aniqlandi.

Ushbu ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, bemorlarning bilimlari infeksiya yuqishining oldini olish uchun etarli emas va sog'lom odamlarda bilim darajasi pastligi ularda infeksiya yuqish xavfi yuqoriligini ko'rsatadi.

SGB va C bilan kasallangan bemorlar (93,7%), shuningdek, sog'lom odamlar (84,3%) gepatit B ga qarshi emlashning mavjudligi va zarurati haqida yuqori darajadagi ma'lumotlarga ega. Bu HBV va C bilan kasallangan bemorlar aralash infeksiyalarga kamroq moyil ekanligini ko'rsatadi va sog'lom odamlarda gepatit B bilan kasallanish xavfi kamayadi.

SGB va C bilan kasallangan bemorlar (37,2%), gepatit B ga qarshi emlangan sog'lom odamlar (41,8%) gepatit B ga qarshi vaksina yaratilganligi va qo'llanilayotganligini bilishadi.

Surunkali gepatit B va C bilan ogʻrigan bemorlarning B (12,4%) va C (31,4%) viruslarga qarshi maxsus antiviral preparatlar mavjudligi haqida etarlicha maʼlumotlarga ega emas. Ushbu maʼlumotlar umumiy amaliyot shifokorlari, poliklinika va statsionar yuqumli kasalliklar shifokorlari virusga qarshi dori vositalarining mavjudligi toʻgʻrisida etarlicha maʼlumot bermasligini koʻrsatadi. Sogʻlom odamlar gepatit B (70,1) va C (73,7%) uchun maxsus virusga qarshi preparatlar mavjudligi haqida yuqori bilimga ega, sogʻlom odamlarning aksariyati oiliy maʼlumotga ega va oʻzlarining sogʻligi bilan qiziqadi deb taxmin qilish mumkin.

Xulosa: Olingan natijalarga koʻra bemorlarning SGB va C epidemiologiyasi, kechishi va oqibatlari, shuningdek, gepatit B ga qarshi emlash boʻyicha yuqori bilim darajasi aniqlandi.

SGB va C bilan kasallangan bemorlar guruxidagi respondentlar orasida gepatit B va C yuqish yoʻllari va omillari toʻgʻrisida bilim darajasi etarli emasligi aniqlandi, ular gepatit C ga qarshi vaksina bor yoki yoʻqligiga aniq javob bera olishmadi. Bundan kelib chiqadiki, infeksiyaning oldini olish uchun bemorlarning bilimlari etarli emas. Shuningdek, SGB va C bilan ogʻrigan bemorlar orasida gepatit B va C uchun maxsus virusga qarshi dorilar mavjudligi haqida maʼlumotlar darajasi past. Ushbu maʼlumotlar umumiy amaliyot shifokorlari, poliklinika va statsionar yuqumli kasalliklar shifokorlarining antiviral preparatlar mavjudligi haqida aniq etarlicha maʼlumot bermaganligini koʻrsatadi.

Umumiy natijalarga koʻra, SGB va C bilan kasallangan bemorlar hozirgi vaqtda oʻz kasalliklarini yaxshi bilmaydi. Ushbu kasallik haqida umumiy amaliyot shifokorlari, infeksiyonistlar uchun sogʻlomlashtirish ishlarini olib boorish va ushbu kasallik bilan bemorlarning umrini uzaytirishga harakat qilish kerak.

Adabiyotlar.

1. Abdumomononov, M., Jumankulov, F., Suvonov, O., Saparov, K., Khudjamov, Z., Chiniyev, O., & Khudjakulov, D. (2024). Some scientific and practical research

on using the experience of traditional medicine. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 149, p. 01071). EDP Sciences.

2. Fazliddinovna, B. M., Olimovna, O. P., & Abduhakimovich, X. D. (2022). Innovative technologies in the training of future doctors. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 594-597.

3. Abdikhakimovich, K. D. (2023). ASSESSMENT OF THE QUALITY OF LIFE OF PATIENTS IN MODERN MEDICINE. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(17), 220-224.

4. Абдихакимович, К. Д. (2024). ЛАБОРАТОРНАЯ ДИАГНОСТИКА ВИРУСА ГЕПАТИТА С. *TADQIQOTLAR. UZ*, 31(2), 53-56.

5. Isrofilovna, M. N., Qizi, O. B. Q., & Qizi, S. M. R. (2023). ICHAK INFEKTSIYALARINING PATOGENEZI VA DIAGNOSTIKASIDA ALLERGIYANING ROLI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(17), 252-256.

6. Одилова, Г. М., & Исокулова, М. М. (2024). ХАРАКТЕРИСТИКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИММУНИТЕТА И ФАКТОРОВ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 2(4), 86-89.

7. Shaykulov, X. S., & Boboqandova, M. F. (2023). ICHAK O 'TKIR YUQUMLI KASALLIKLARI BILAN KASALLANGAN BOLALARDA SHARTLI PATOGEN ENTEROBAKTERIYALARNING UCHRASHI. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 25-33.